

KURSANTLARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHDA GAPIRISHNI O'RGATISHDAGI QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti,
Nargiza Shirinova

Annotatsiya: Maqolada ingliz tili darslarida kursantlarni gapishtiga o`rgatish muammolari yoritilib, undagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari keltirilgan.

Kalit so`zlar: gapishtig, ko`nikma, malaka, qobiliyat, usul, vosita.

Kursantlarni nutq faoliyati turlariga o`rgatish, ya`ni ular bo`yicha bilish faoolligini oshirish dolzarb vazifadir. Kursantlarni nutq faoliyati turlariga o`rgatish orqali ularning ingliz tilidagi matnlarni o`qib to`liq tushunishlari, audiomatnlar yoki suhbatdoshlarining nutqini tushuna olishlari, shuningdek, ingliz tilida erkin yozma va og`zaki nutq yuritishlariga erishamiz. Ushbu jarayonda ularning o`qish, tinglab tushunish, gapishtig va yozuv bo`yicha bilish faoolligi ham oshib boradi. Bularni amalga oshirish uchun, ingliz tili o'qituvchilar kursantlarning o`qish, tinglab tushunish, og`zaki va yozma nutq yuritishlaridagi qiyinchiliklarini anglay olishlari, ularni bartaraf etish bo`yicha bir qator metodik ishlarni amalga oshirishlari zarur. Bizga ma'lumki, kursantlarimizning sohasi bo`yicha ingliz tilida ta'lim olishlari, undan muloqot maqsadida foydalanishlari asosiy vazifamizdir. Shunday ekan, kursantlarga beriladigan harbiy sohaga oid materiallarni o`qish, audiomateriallarni tinglab tushunish va ular bo`yicha og`zaki va yozma nutq yuritish bo`yicha ko`nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladigan samarali usullarni qo'llay olish ingliz tili o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifadir.

Yuqorida aytib o`tilganidek, kursantlarning bilish faoligini oshirishga xizmat qiladigan asosiy ko`nikmalardan biri **gapishtidir**. So`zlashishda kursantlar til mexanikasi(talaffuz, grammatika, lug`at), til funksiyalari (so`rash, salomlashish, ruxsat olish va h.k.)dan xabardor bo`lishlari zarur. Kursantlarning gapishtig ko`nikmasini shakllantirish jarayonida bir qator *qiychiliklarga duch kelinadi*. Masalan,

- *leksik ko`nikma*(so`z boyligi)ning yetarli darajada shakllanmaganligi;
- *grammatik ko`nikma*(nutq qurilishi)ning yetarli darajada shakllanmaganligi;
- *talaffuz ko`nikmalarining* yetarli darajada shakllanmaganligi;
- *ona tilidan me`yordan* ortiq foydalanish;
- *psixologik faktorlar*: xato qilishdan qo'rqish, ikkilanish, ishonchsizlik, tashvish, asabiylashish, uyatchanlik;
- *atrof-muhit muammolari*: guruhda ingliz tili muhitining yaratilmaganligi, kursantlarning ona tiliga tarjima metodidan haddan ziyod foydalanishlari, guruhdagagi kursantlar ko`pchiligining ingliz tiliga qiziqishining sustligi ingliz tilida gapirish imkoniyatlarining cheklanishiga sabab bo`ladi.

Yuqorida keltirilgan *muammolarni bartaraf qilish* o`qituvchidan mahorat talab qiladi. Uni quyidagi yechimlarda bayon qilishimiz mumkin:

Kursantlar leksik ko`nikma(so`z boyligi)sining yetarli darajada shakllanmaganligi gapirish jarayonida ba`zi bir qiyinchiliklarga sabab bo`ladi. Buning uchun, birinchi navbatda, kursantlarning lug`at bilan ishslash ko`nikmasini shakllantirishimiz zarur, kursantlar har doim ikkita, ya`ni ona tilidan ingliz tiliga, ingliz tilidan ona tilidagi lug'atga ega bo`lishi zarur. Ushbu lug'atlardan zarur bo`lgan so'zlarni qidirish, ularning mazmun-mohiyatini anglash, to`g`ri qo`llanilishi bo`yicha bilimlarga ega bo`lish, ya`ni ularning bilish faolligini til o`qitish samaradorligini oshiradi.

Ingliz tilidagi grammatik ko`nikma(nutq qurilishi)ning yetarli darajada shakllanmaganligi ham kursantlar fiklarini to`g`ri bayon qila olmasliklari va buning natijasida ular nutqlarining rivojlanmaganligi kabi salbiy ta`sirlarga olib keladi. Shuning uchun, ingliz tili o`qituvchilari grammatik materialni o`rgatishning, ya`ni grammatika bo`yicha bilish faolligini oshirishning samarali usul va vositalarini to`g`ri tanlay olishlari zarur, chunki grammatik qoidalarni tushunish aniqlik va samarali muloqotni kuchaytiradi.

Talaffuz ko`nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi ingliz tilida gapirishga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham, talaffuz ko`nikmasini

shakllantirish, ya`ni ularning bilish faolligini oshirish maqsadida kursantlar bir qator amallarni bajarishlari zarur. Albatta, ushbu jarayon kursantlardan ancha vaqt va amaliyot talab qiladi. Tabiiy til egalarining nutqini muntazam eshitib borish, ularning nutqini taqlid qilish va har xil gapirishning turlarini ham mashq qilish samarali hisoblanadi.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o`rganish jarayonida o`rganuvchilar ba`zi bir til to`sinqlariga duch kelish tabiiy holdir. Hattoki, ingliz tili egalari ham ba`zi bir xatoliklarga uchrashishlari mumkin. Shuning uchun ham, ingliz tilida gapirish jarayonida nutqimizda uchrashi mumkin bo`lgan xatoliklardan xavotir olmagan tarzda ushbu tilda nutq yuritish tilni tezroq o`zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kursantlarning bilish faolligi oshirilgan taqdirdagina, ular bir-birining ingliz tilidagi nutqini eshita olish va nutqlarida uchraydigan xatoliklarni tahlil qila olish va ularni bartaraf etish bo`yicha bir qator tavsiyalar berib borish ko`nikma va malakalariga ega bo`lib borishadi.

Kursantlarning bilish faolligini oshirishda psixologik faktorlar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, xato qilishdan qo'rqish, ikkilanish, ishonchsizlik, tashvish, asabiylashish, uyatchanlik og`zaki nutqni o`stirishda to`sinq bo`lishi mumkin. Tabbiiy holda, o`rganilmagan tilda gapirish jarayonida ba`zi bir xatoliklarga yo`l qo`yish mutlaqo normal holatdir, shuning uchun, muntazam ravishda mashq qilish va xatolar ustida ishlash salbiy ta`sir qiluvchi psixologik omillarni bartaraf etish uchun qo`l keladi.

Dars jarayonida ingliz tilida gapirish muhitini yaratish, ularning yoshi va kasbiga mos keluvchi o`qitish materialini tanlash kursantlarning ingliz tilida gapirishga bo`lgan qiziqishini oshiradi va gapirish ko`nikma va malakalarini shakllantirishga, yani bilish faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Bibliography

Shahnoza, A. (2022). PROFILAKTIKA INSPEKTOR TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH.

- Aripova, S. (2022). PROFILAKTIKA INSPEKTOR TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 20), 587-591.
- Aripova, S. (2020). THE PROBLEMS OF APPLYING DIFFERENT METHODS TO THE INDEPENDENT LEARNING PROCESS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(12).
- Abduazizovna, P. Z. (2022). TALIM TIZIMIDA «ASSESSMENT» HAMDA «EVALUATION» TUSHUNCHALARI VA ULARNING FARQI (The concepts of "assessment" and "evaluation" in the education system and their differences).
- Abduazizovna, P. Z. (2025). THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE OF LEARNERS. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 72(1), 273-282.
- Abduazizovna, P. Z. (2025). PRINCIPLES OF EFFECTIVE FORMATIVE ASSESSMENT IN EFL/ESL. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 71(1), 202-207.
- Abduazizovna, P. Z., & Lazokat, I. (2025). ASSESSMENT FOR LEARNING AND ITS BENEFITS. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 337-343.
- Abduazizovna, P. Z. (2025, March). DIDACTIC FUNDAMENTALS OF IMPROVING LEXICAL COMPETENCE (B2 LEVEL). In *International Educators Conference* (pp. 135-142).
- Shirinova, N. (2024). DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY OF CADETS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI BEKE*, (54-4).
- Ширинова, Н., & Ширинова, Н. (2022). ПОВЫШЕНИЕ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ КУРСАНТОВ ЭКОНОМИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ НА УРОКАХ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 744-746.
- Shirinova, N. D., & Shirinova, N. D. (2023). LISONIY PARALLELIZM HODISASIGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 51-56.
- Shirinova, N. D., & Davlatova, M. K. MORPHOLOGICAL WAY OF DIFFERENTIATION OF SUBSTANCE AND ATTRIBUTIVE MEANINGS IN THE LANGUAGE SYSTEM. *ILMIY XABAR NOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК* Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура,(1), 86-89.
- Shirinova, N. (2018). ORGANIZATION OF THE ENGLISH TEACHING PROCESS. *Irrigatsiya va Melioratsiya*, (2), 61-64.
- Nilufar, S., Nargiza, S., & Nosir, R. (2023). Study of the gradual relations in differentiation of substance and attributive meanings in the english and uzbek languages.

- Tulkin, S., Nargiza, S., & Nilufar, S. (2022). ANALYSIS OF THE TRANSLATION OF ZAHIRIDDIN BABURS POEMS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(02), 42-48.
- Djabarovna, S. N. (2021). Synonymous pairs of lexical units. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 910-913.
- Ширинова, Н. (2010). Ўзбек тилида предметлик ва белги-хусусият маъноларини фарклаш воситалари: Филол. фан номз.... дисс.
- Shirinova, N. D. (2006). The expression of the relation of substance and attribute in the language system. *The Problems of Philology and Methodics*.—Bukhara, 98-101.
- Darvishova, G. K. S. B. I., & MAVQEI, A. I. ORIENSS. 2023.№ 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sharlotta-bronte-ijodida-ayolning-ijtimoiyatqei> (дата обращения: 10.10. 2023).
- Дарвишова, Г. К. (2022). По Педагогическом Мастерстве Учителя Иностранного Языка В Процессе Урока. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3, 122-125.
- Kenjabayevna, D. G. (2025, March). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR GAMES IN TEACHING ENGLISH. In *International Educators Conference* (pp. 107-115).
- Darvishova, G. (2024). ШАРЛОТТА БРОНТЕНИНГ ИНГЛИЗ АДАБИЁТИГА ҚЎШГАН ХИССАСИ. *Наука и инновация*, 2(23), 91-96.
- Kenjabayevna, D. G. (2025, March). CLASSROOM BEHAVIOR IS A MANAGEMENT ISSUE. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 220-225).
- Abduazizovna, P. Z., & Lazokat, I. (2025). ASSESSMENT FOR LEARNING WITH ARTIFICIAL INTELLIGENCE. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 330-336.
- Иканова, Л. (2025, March). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПРАВ ОСУЖДЕННЫХ И ЛИШЕННЫХ СВОБОДЫ ЛИЦ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАНЬ И ИХ ВНЕДРЕНИЕ В ПРАКТИКУ. In *International Educators Conference* (pp. 116-120).
- Ikanova, L. S. Q. (2024). SUDLANGAN SHAXSLAR VA MAHKUMLARNING XULQ ATVORI VA QAYTA JINOYAT SODIR ETISHINI BARTARAF QILISHDA TA'LIMNING TA'SIRI (AQSH TAJRIBASI MISOLIDA). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(1), 433-439.
- Ikanova, L. S. (2019). The impact of materials development, critical pedagogy and lgbt's issue on the language planning and policy. *Вестник педагогики: наука и практика*, (48), 68-70.
- Иканова, Л. (2024). ОБРАЗОВАНИЕ В ТЮРЬМЕ: ФУНДАМЕНТАЛЬНОЕ ПРАВО И ВАЖНЫЙ ИНСТРУМЕНТ. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 3, No. 5, pp. 269-275).

Sayyora, I. (2025, April). TEACHING BASIC CEFR AND IELTS SKILLS TO CADETS IN A MILITARY SETTING. In *International Educators Conference* (pp. 199-204).

Sayyora, I. (2025, April). CASE STUDIES ON TEACHING ENGLISH TO CADETS: METHODS FOR CEFR AND IELTS IN A MILITARY SETTING. In *International Educators Conference* (pp. 241-246).

Sayyora, I. (2025). INTEGRATING INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO ENHANCE CADETS'LINGUISTIC COMPETENCE THROUGH BLENDED LEARNING IN UZBEKISTAN'S CEFR AND IELTS PREPARATION. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 325-329.

Sayyora, I. (2025). INTEGRATING INNOVATIVE TECHNOLOGIES INTO ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND CERTIFICATE OBTAINING FOR CADETS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, 73(2), 320-324.